



## Buxoro viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari<sup>1</sup>

2025-yil yanvar-mart


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025-yil yanvar-mart oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **8 711,8** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024-yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **108,9 %** ni tashkil etib, uning hajmi esa **1 434,4** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

*Ma'lumot uchun: 2024-yil yanvar-mart oylarida xizmatlar hajmi 7 277,4 mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa 112,9 % ni tashkil etgan.*

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan (**3 554,7** ming so'm) 2025-yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **633,8** ming so'mga yoki **7,2 %** ga o'sib, **4 188,5** ming so'mni tashkil etgan.

<sup>1</sup> 2024-yil yanvar-mart oylari hajmi va 2025-yil yanvar-mart oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirdorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 819,0 mlrd so'mni** yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **66,8 %** ini, jumladan, **35,7 %** ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

## **II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi**

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari  
2025- yil yanvar-mart

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
<b>Buxoro viloyati<sup>2</sup></b>	<b>8 711,8</b>	<b>100,0</b>	<b>108,9</b>
<i>tumanlar:</i>			
Olot	196,9	2,2	109,9
Buxoro	308,2	3,5	109,2
Vobkent	599,0	6,9	116,2
G'ijduvon	730,1	8,4	109,4
Kogon	209,2	2,4	110,8
Qorako'l	258,1	3,0	109,1
Qorovulbozor	111,5	1,3	110,4
Peshku	328,9	3,8	106,5
Romitan	321,2	3,7	109,2
Jondor	338,5	3,9	109,4
Shofirkon	266,0	3,0	108,8
Buxoro shahri	2 277,8	26,1	106,9
Kogon shahri	225,1	2,6	115,5

**Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi](#)

Buxoro shahrining yuqori ulushi (**26,1 %**) uning shahar maqomi bilan izohlanadi, u Buxoro viloyatining markaziy shahridir. Shaharda davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, banklar va yirik kompaniyalar jamlangan bo'lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo'lgan talabni oshiradi. Buxoro rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega shahar, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

## **III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-sodan qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat

<sup>2</sup> Shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmining o'sishida savdo xizmatlari **11,1 %** ga (o'sishiga hissasi **2,6** band), transport xizmatlari **13,1 %** ga (o'sishiga hissasi **2,2** band), yashash va ovqatlanish xizmatlari **7,7 %** ga (o'sishiga hissasi **1,9** band), moliyaviy xizmatlari **4,6 %** ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiylajmining o'sishiga hissasi **0,7** bandni tashkil etdi), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **17,5 %** ga (o'sishiga qo'shgan hissasi **0,5** band) va me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlari **13,2 %** ga (o'sishiga hissasi **0,3** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

**Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-mart)**

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2024- y.	2025- y.	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>7 277,4</b>	<b>8 711,8</b>	<b>108,9</b>
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	228,0	289,0	117,5
moliyaviy xizmatlar	1 042,9	1 126,4	104,6
transport xizmatlari	1 256,4	1 581,1	113,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<b>1 160,1</b>	<b>1 431,6</b>	<b>111,3</b>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 818,3	2 234,0	107,7
savdo xizmatlari	1 688,6	1 958,2	111,1
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	108,5	129,8	112,4
ta'lif sohasidagi xizmatlar	316,5	355,3	97,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	126,1	148,6	106,8
ijara xizmatlari	115,4	158,1	108,0
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	145,3	178,6	113,2
shaxsiy xizmatlar	141,5	181,7	108,4
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	45,6	65,3	113,0
boshqa xizmatlar	244,3	305,7	105,0

**Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)


2025- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **25,6 %**, savdo xizmatlari **22,5 %**, transport xizmatlari **18,2 %**, moliyaviy xizmatlari **12,9 %**, ta'lif sohasidagi xizmatlar **4,1 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa **3,3 %** ulushini tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2024- yilning tahvil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiylajmidagi yashash va ovqatlanish xizmatlari **25,0 foiz**, savdo xizmatlari **23,2 foiz**, transport xizmatlari **17,3 foiz**, moliyaviy

**xizmatlar 14,3 foiz, ta'lim sohasidagi xizmatlar 4,3 foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa 3,1 foiz ulushni tashkil etgan.**


**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari** hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdag'i xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi **80,0** foizni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan esa **17,2** foizga o'sgan.

#### Telekommunikatsiya xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida **transport sohasida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari (147,5 %), avtotransport (111,3 %) xizmatlarida** yuqori o'sish sur'ati qayd etildi.

#### Transport sohasida xizmat turlarining hajmlari





Havo transporti xizmatlarining o'sishiga xalqaro va ichki turizmning rivojlanishi, parvozlar sonining ortishi, shuningdek, ko'plab mamlakatlar uchun vizasiz rejimning joriy etilishi ta'sir ko'rsatdi. Elektron tijoratning rivojlanishi (OZON, Wildberries, AliExpress, mahalliy bozorlarda onlayn xaridlarning ko'payishi), Express24, MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzum Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turtki bo'ldi. Aeroportlarni modernizatsiya qilish imkoniyatini oshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi, bu esa o'z navbatida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

#### IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

##### Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu** – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.



**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

## V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

---

**Chiqarish uchun javobgar:**  
Xizmatlar sohasi statistikasini bo'limi

**Manzil:** 200100, Buxoro,  
S. Ayniy ko'chasi, 3  
**Pochta:** [info@buxstat.uz](mailto:info@buxstat.uz)  
Tel.: 65-223-79-41

